



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**NAMANGAN VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-sentabr*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 69-227-84-95***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yilning 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 88 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-sentabr oyida tumanlarning chakana savdo tovar aylanmasi 16 500,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 276,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 133,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 15 223,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 752,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	16 500,0	109,5
Namangan shahar	7 010,1	112,6
tumanlar:		
Mingbuloq	442,8	104,6
Kosonsoy	755,5	107,0
Namangan	622,7	106,3
Norin	843,5	106,3
Pop	1 008,0	110,1
To'raqo'rg'on	1 040,3	109,8
Uychi	818,3	106,4
Uchqo'rg'on	678,9	106,4
Chortoq	689,1	106,1
Chust	1 130,5	106,6
Yangiqo'rg'on	803,0	106,8


2024- yilning yanvar-sentabr oyida 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan hududlarning Namangan shahri (112,6 %), Pop (110,1 %) va To'raqo'rg'on (109,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024 yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 42,5 % bilan 7 010,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mingbuloq 2,7 % bilan 442,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-sentabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 15 223,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 7,9 % ga oshdi. Namangan viloyatida miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,3 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 33,1 % ga o'sdi va 1 276,4 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,7 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (99,1 %), Kosonsoy (98,8 %), Uchqo'rg'on (97,9 %), Mingbuloq (97,4 %), va Yangiqo'rg'on (96,6 %) tumanlarida yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Namangan shaharida (9,8 %), Pop (8,6 %), To'raqo'rg'on (7,8 %), Chortoq (7,4 %), tumanlarida kuzatildi.

7,7 %

92,3 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’mda*

Namangan
shahar

9 973,1

Yangiqo‘rg‘on

3 362,5

Mingbuloq

3 208,5

Kosonsoy

3 286,4

Namangan

3 203,0

Norin

4 762,8

Pop

4 249,6

To‘raqo‘rg‘on

4 208,4

Uychi

3 492,7

Uchqo‘rg‘on

3 638,1

Chortoq


3 182,9

Chust

3 928,0

2024- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 338,6 ming. so‘mni (2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 107,1 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (9 973,1 ming. so‘m), Norin (4 762,8 ming. so‘m) va Pop (4 249,6 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-sentabr), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1 470,2	120,7
Namangan sh.	423,9	107,3
tumanlar:		
Mingbuloq	40,9	115,2
Kosonsoy	56,0	158,7
Namangan	50,0	105,2
Norin	133,0	120,0
Pop	108,0	146,7
To'raqo'rg'on	182,9	115,4
Uychi	63,9	147,3
Uchqo'rg'on	76,4	121,0
Chortoq	116,8	133,1
Chust	146,7	138,9
Yangiqo'rg'on	71,7	116,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-sentabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 752,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 113,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 470,2 mlrd so'mni (120,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 282,3 mlrd so'mni tashkil etdi (105,7 %).













2024-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 470,2 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (758,3 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 758,3 mlrd so'm  51,5 %	Non va non mahsulotlari 144,3 mlrd so'm  9,8 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 188,4 mlrd so'm  12,8 %
Tovuq go'shti 70,6 mlrd so'm  4,8 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 70,4 mlrd so'm  4,7 %	Tuxum 39,0 mlrd so'm  2,7 %
Ziravorlar 34,9 mlrd so'm  2,4 %	Sut va sut mahsulotlari 76,5 mlrd so'm  5,2 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 35,5 mlrd so'm  2,4 %
Tuzlamalar 25,8 mlrd so'm  1,8 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 25,5 mlrd so'm  1,7 %	Nooziq-ovqat tovarlar 4,5 mlrd so'm 0,3 %

2024- yilning yanvar-sentabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 282,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi – 1 159,5 mlrd so'm, qo'y va echkilar –111,2 mlrd so'mni, otlar –8,1 mlrd so'mni, parrandalar – 4,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>657,0 mlrd so'm</p>  <p>51,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>277,0 mlrd so'm</p>  <p>21,4 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>225,5 mlrd so'm</p>  <p>17,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>103,1 mlrd so'm</p>  <p>8,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>8,1 mlrd so'm</p>  <p>0,63 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>7,1 mlrd so'm</p>  <p>0,55 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>3,5 mlrd so'm</p>  <p>0,27 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,8 mlrd so'm</p>  <p>0,069 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,07 mlrd so'm</p>  <p>0,005 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,06 mlrd so'm</p>  <p>0,004 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yilning 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 170 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	12 242,3	113,1
Namangan sh.	286,4	110,7
tumanlar:		
Mingbuloq	8,2	109,8
Kosonsoy	6,6	108,2
Namangan	22,7	93,7
Norin	6,6	110,8
Pop	21,0	139,3
To'raqo'rg'on	9,0	110,5
Uychi	5,3	109,7
Uchqo'rg'on	8,2	108,1
Chortoq	7,8	108,4
Chust	60,8	101,4
Yangiyo'rg'on	6,4	108,9

2024- yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 12 242,3 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, Foizda
Namangan viloyati	3 154,4	118,3
Namangan sh.	2 398,8	123,4
tumanlar:		
Mingbuloq	15,8	146,4
Kosonsoy	6,0	123,4
Namangan	29,2	132,6
Norin	23,6	124,3
Pop	95,8	110,6
To'raqo'rg'on	9,3	126,8
Uychi	33,5	132,8
Uchqo'rg'on	2,4	115,5
Chortoq	13,2	130,5
Chust	512,9	97,3
Yangiqo'rg'on	13,9	211,9

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan shahri (2 398,8 mlrd so'm), Chust (512,9 mlrd so'm) va Pop (95,8 mlrd so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




2024- yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 154,4 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 033,2 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 147,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 2121,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati –108,0 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 11 567,4 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 9 203,3 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 79,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Pop(6,7 m), Chust(149,1 %), Namangan shahrida (126,1 %) kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	11 567,4	111,2
Namangan sh.	6 077,3	116,3
tumanlar:		
Mingbuloq	233,8	76,0
Kosonsoy	128,6	98,9
Namangan	298,1	100,3
Norin	434,9	104,5
Pop	212,6	106,7
To'raqo'rg'on	231,0	88,3
Uychi	285,2	80,2
Uchqo'rg'on	177,7	77,2
Chortoq	483,7	173,8
Chust	303,5	127,8
Yangiqo'rg'on	281,4	106,1